# AFRIKA
## HAYVONOT OLAMI

Sudralib yuruvchilar, Hasharotlar, Qushlar



# ЖИВОТНЫЙ МИР
# АФРИКИ

Пресмыкающиеся, Насекомые, Птицы

**2**

«G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi»
Toshkent
2012

591.9(и)6 - Фауна Африки
598 - Пресмыкающиеся. Рыбы
595.7 - Энтомология
28.6(6 Африка) - Зоология

UDK 504.74 (1-926.83)
28.6 (6 Afrika)
A 89
BBK 28.6 (6 Afrika)

*Tuzuvchilar:*

**Laziz Tangriyev, Shuhrat Mirfayozov**

*Taqrizchi:*

**I.Saparboyev** – Respublika ta'lim markazi «Tabiiy va aniq fanlar» bo'limi biologiya fani metodisti

*Tarjimon* **Muhiddin Omon**

Afrika hayvonot olami – Животный мир Африки. 2-kitob/Tuzuvchilar: L.Tangriyev, Sh. Mirfayozov. – T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot matbaa-ijodiy uyi, 2012-yil. – 96 b.

**BBK 28.6 (6 Afrika)**

Alisher Navoiy nomid... O'zbekiston ...
2012/135
A8010
Ю 40096/2

ISBN 978-9943-03-422-8

© G'afur G'ulom nomidagi nashriyot matbaa-ijodiy uyi. 2012-yil.







# AFRIKA

**Afrika** – O'rta yer dengizi hamda Qizil dengizdan janubda, Atlantika okeanining sharqiy tomonida va Hind okeanining g'arb tomonida joylashgan qit'adir. Ushbu qit'a maydonining kattaligi jihatidan Yevroosiyodan keyin, ikkinchi o'rinda turadi.

Afrika qit'asini ekvator va bir necha iqlim mintaqalari kesib o'tadi; mazkur qit'a shimoliy subtropik mintaqadan to janubiy subtropik mintaqaga qadar yastanib turuvchi yagona qit'adir.

Sahroi Kabirning ayrim tog'li hududlarida quyidagi o'simliklar – zaytunning va sarvning bir necha turlari, xushbo'y mumli daraxt, xurmo, palma, oleandr, efedra kabi daraxtlar, yulg'un, yovshan, toshcho'p o'simliklari uchraydi. Vodiylarida esa asosan xurmo, anjir, zaytun va bir qator mevali daraxtlar hamda sitrus o'simliklar, turli sabzavotlar yetishtiriladi.

Shuningdek, Afrika materigi va unga yondosh bo'lgan orollar ham Afrika deb ataladi. Afrikaning maydoni 29,2 mln km² dan iboratdir, orollar bilan qo'shib hisoblaganda–bu ko'rsatkich 30,3 mln km² ni tashkil etadi. Shunday qilib, Afrika Yer yuzi quruqlik maydonining 20,4 % ni qamrab olgan. Afrika aholisi bir milliard kishiga yaqin.

# АФРИКА

**Африка** – континент, расположенный к югу от Средиземного и Красного морей, востоку от Атлантического океана и к западу от Индийского океана. Это второй по величине континент после Евразии.

Африканский континент пересекает экватор и несколько климатических зон; это единственный континент, протянувшийся от северного субтропического климатического пояса до южного субтропического.

В горных районах пустыни Сахара встречаются следующие растения – некоторые виды олив, кипариса и мастиковое дерево, акации, тамариски, полын, дум-пальма, олеандр, финик пальчатый, тимьян, эфедра. В оазисах возделывают финики, инжир, оливковые и фруктовые деревья, некоторые цитрусовые, различные овощи.

Африкой называется также часть света, состоящая из материка Африка и прилегающих островов. Площадь Африки составляет 29,2 млн км², с островами – около 30,3 млн км², покрывая, таким образом 20,4 % общей площади поверхности суши. Население около миллиарда человек.









## Timsohlar
## Крокодилы

**Timsohlar** – suvda yashovchi umurtqalilar guruhiga kiruvchi hayvonlardir.

Aksariyat timsohlarning tana uzunligi 2–5,5 m ni tashkil etadi. Ularning tashqi ko'rinishi o'zlari yashaydigan suv muhitiga yaxshigina moslasha olishlaridan dalolat beradi: ularning boshi yassi, tumshug'i uzun; tanasining tuzilishi ham yapasqi; dumi har ikki tomonidan biroz ingichkalashib borsada, nihoyatda kuchli; ammo oyoqlari xiyla kalta bo'ladi.





**Крокодилы** – отряд водных позвоночных.

Длина большинства крокодилов 2–5,5 м. Их внешность демонстрирует адаптацию к обитанию в водной среде: голова плоская, с длинным рылом; туловище приплюснутое; хвост мощный, сжатый с боков; ноги довольно короткие.



## Nil timsohi
## Нильский крокодил





**Nil timsohi** – haqiqiy timsohlar oilasiga kiruvchi sudralib yuruvchi hayvondir.

Nil timsohi odatda nihoyatda yirik gavdaga ega bo'lib, uning uzunligi 5 m, ba'zan esa 5,5 m gacha yetadi. Vazni ko'pincha 500 kg dan ortiqroq, ba'zan hatto 1200 kg dan ham salmoqliroq og'irlikka ega noyob vakillari uchraydi.

**Нильский крокодил** – крупное пресмыкающееся семейства настоящих крокодилов.

Нильский крокодил имеет крупные размеры, обычно около 5 м, изредка до 5,5 м. Вес часто превышает 500 кг, встречаются отдельные экземпляры весом свыше 1200 кг.



● Afrika uzuntumshuq timsohi
● Африканский узкорылый крокодил



**Afrika uzuntumshuq timsohi** yoki Afrika gaviali – haqiqiy timsohlar oilasiga mansub sudralib yuruvchi hayvon.

Uning tana hajmi – 2,5 m ni tashkil qilib, ba'zan 4 m uzunlikka ega bo'lgan gaviallar ham uchrab turadi.



**Африканский узкорылый крокодил** или Африканский гавиал – пресмыкающееся семейства настоящих крокодилов.

Размер 2,5 м, изредка встречаются особи длиной до 4 м.



**To'mtoqtumshuq timsoh**
**Тупорылый крокодил**





**To'mtoqtumshuq timsoh** (Afrika pakana timsohi) – ayni paytda hayot kechirayotgan haqiqiy timsohlar oilasiga mansub uncha yirik bo'lmagan sudralib yuruvchi hayvondir.

Katta yoshdagi to'mtoqtumshuq timsohning tana hajmlari odatda 1,5 m dan oshmaydi, biroq ularning eng uzun tanaga ega vakili, ya'ni 1,9 m ga teng keladigani ham qayd etilgan.

**Тупорылый крокодил** (Карликовый африканский крокодил) – небольшое пресмыкающееся семейства настоящих крокодилов, самый маленький из существующих сейчас видов крокодилов.

Размер взрослого тупорылого крокодила обычно не превышает 1,5 м, максимальная зарегистрированная длина составляет 1,9 м.



## Cho'l echkemari
## Степной варан





**Cho'l echkemari** yoki kap echkemari – echkemarlar oilasiga mansub sudralib yuruvchilarning bir turidir.

Katta yoshdagi kap echkemarining hajmi odatda –1 m atrofida bo'lsa-da, ba'zan ularning 120–130 sm uzunlikka ega yirikroq vakillari ham uchrab turadi.

**Степной варан** или Капский варан – вид пресмыкающихся из семейства варанов.

Обычный размер взрослого капского варана – около 1 м, особи длиной 120–130 см считаются очень крупными.



Nil echkemari
Нильский варан





**Nil echkemari** – echkemarlarning nihoyatda yirik gavdaga ega turidir.

Nil echkemarlarining o'rtacha tana uzunligi odatda 150 sm ni tashkil etadi, shundan tumshug'ining uchi va kloakasi(axlat chiqaruv kanali)gacha bo'lgan uzunlik 50 sm dan iboratdir.

**Нильский варан** – крупный вид варанов.

Нильские вараны достигают средней общей длины 150 см при длине от кончика морды до клоаки около 50 см.



## Bigizdumlar
## Шипохвосты

**Bigizdumlar** – agamasimonlar oilasiga mansub kaltakesaklarning bir turidir.

Ushbu turga oid kaltakesaklar nisbatan ancha yirik bo'lib, ularning tana uzunligi 75 sm gacha yetadi. Ularning boshi kalta va yapasqi ko'rinishga ega. Gavdasi ancha past bo'lishiga qaramasdan, eniga keng tus olgan. Oyoqlari ancha yo'g'on va baquvvat. Dumi kalta, go'yo atayin zichlantirilganday, dumi ustida ko'ndalang tarzda xuddi bigizsimon tikonlari bor.



**Шипохвосты** – род ящериц из семейства агамовых.

Крупные ящерицы, длиной до 75 см. Голова короткая и приплюснутая. Туловище низкое, широкое. Ноги массивные. Хвост короткий, уплощённый, сверху покрыт колючими шипами, которые образуют поперечные ряды.





## Agamasimonlar
## Агамовые



**Agamasimonlar** – kaltakesaklar kenja turiga oid sudralib yuruvchilarning alohida oilasidir.

Bu oilaga mansub kaltakesaklar o'rtacha va kichik hajmda bo'lib, asosan kunduz kunlari hayot kechiradi. Tanasining uzunligi dumi bilan qo'shib hisoblaganda 8 sm, biroz mayda yumaloqboshli vakillarining uzunligi 5 sm gacha boradi.

**Агамовые** – семейство в составе подотряда ящериц.

Ящерицы средних и мелких размеров с дневной активностью. Длина туловища с хвостом от 8 см, у мелких круглоголовок до 5 см.



● **Gardun agamasi**
● **Агама-гардун**

**Gardun agamasi** yoki stellion – Osiyo tog' agamalari oilasiga kiruvchi kaltakesaklar turiga mansub jonivor bo'lib, ular Shimoliy Afrikada yashaydi.

Ushbu tur vakillarining tana uzunligi 30 sm gacha yetishi mumkin.

**Агама-гардун** или стеллион – вид ящериц из семейства азиатские горные агамы, обитающий в северной Африке.

В размерах может достигать 30 см.







**Koloniyachilar agamasi**
**Агама колонистов**





**Koloniyachilar agamasi** yoki oddiy agama – Afrikanining Sahroi Kabirdan janubda yastanib yotgan butun hududi bo'ylab keng tarqalgan kaltakesak turidir.

Ularning tana uzunligi 40 sm gacha yetishi mumkin. Nazariy jihatdan ular o'rtacha 12 yil atrofida umr kechiradilar, biroq ushbu turga oid jonivorlarning ko'pchiligi hayotining ilk oylaridayoq nobud bo'ladi.

**Агама колонистов** или обыкновенная – распространена практически на всей территории Африки южнее Сахары.

В размерах может достигать 40 см. Продолжительность жизни теоретически около 12 лет, однако большинство умирает в первые месяцы.



## Kanar kaltakesagi
## Канарская ящерица

**Kanar kaltakesagi**–haqiqiy kaltakesaklar oilasiga mansub sudralib yuruvchilarning bir turidir.

Ushbu turga xos jonivorlarning erkagi urg'ochilariga qaraganda biroz yirikroq bo'lib, ular bo'ynining to'q-moviy tusdaligi, shuningdek tanasining yon qismidan o'tuvchi ko'kimtir chiziqlari bilan yaqqol ajralib turadilar. Ushbu turga mansub erkak jonivorlarning tana uzunligi 30 sm gacha yetishi mumkin.



**Канарская ящерица** – вид семейства настоящих ящериц.

Самцы несколько крупнее самок и отличаются ярко-синей окраской шеи, а также синими полосками по бокам. Самцы могут достигать размеров до 30 см.





**Xoldor mesalina**

**Крапчатая месалина**



**Xoldor mesalina** (yoki chipor mesalina) – Osiyo va Shimoliy Afrikada yashaydigan kaltakesak turidir.

Uning tana uzunligi – 18 sm dan oshmaydi.

**Крапчатая месалина** – вид ящериц, обитающий в Азии и Северной Африке.

Длина тела не превышает 18 см.



## Sinay agamasi
## Синайская агама



**Sinay agamasi** – agamasimonlar oilasiga kiruvchi kaltakesak turi.

Uning tana uzunligi odatda 18 sm bo'ladi. Tanasining rangi urchish davrini hisobga olmaganda, asosan – jigarrang mallasimon.

**Синайская агама** – ящерица семейства агамовых.

Длина тела обычно около 18 см. Основная окраска вне периода размножения – коричневатая.





## Afrika mabuilari
## Африканские мабуи





**Afrika mabuilari** – uzun dumli o'rtacha kattalikdagi yoki ba'zan yirikroq ko'rinishga ega kaltakesaklardir. Ular yaxshi rivojlangan beshta panjali oyoqlarga ega bo'ladi.

**Африканские мабуи** – длиннохвостые ящерицы среднего или довольно крупного размера, имеющие хорошо развитые пятипалые конечности.

2012/135
A 8010
Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston MK



## Afrika pakana buqalamunlari
## Африканские карликовые хамелеоны

**Afrika pakana buqalamunlari** yoki ramfaleonlar – buqalamunlar oilasiga mansub kaltakesaklar turidir.

Ular asosan Afrikaning tropik hududlarida keng tarqalgan bo'lib, quruqlikda ham, daraxtlar ustida ham birdek hayot kechira oladilar.



**Африканские карликовые хамелеоны** или рамфолеоны – род ящериц из семейства хамелеонов.

Распространены в Тропической Африке. Ведут полудревесный образ жизни.



Uzunoyoq sinklar

Длинноногие сцинки





**Uzunoyoq sinklar** – sinksimonlar oilasiga kiruvchi kaltakesaklar turidir.

Uzunoyoq sinklar ham o'rtacha kattalikda yoki ba'zan yirikroq ko'rinishga ega bo'ladilar. Xuddi mabuilar kabi ularning ham yaxshi rivojlangan beshta panjali oyoqlari bor.

**Длинноногие сцинки** – род ящериц семейства сцинковых.

Длинноногие сцинки – средней величины или довольно крупные ящерицы с хорошо развитыми пятипалыми конечностями.



## Egiluvchan toshbaqa
## Эластичная черепаха





**Egiluvchan toshbaqa** – quruqlikda yashovchi toshbaqalarning bir turidir.

Ushbu turga oid toshbaqalarning tanasini qoplab turuvchi zirhli kosasi anchagina mustahkam bo'lsa-da, qo'l tekkizganingizda uning yumshoq ekanligini sezishingiz mumkin. Ular zirhli kosasining uzunligi – 15–18 sm keladi, urg'ochi toshbaqalar erkaklaridan yirikroq bo'lib, erkaklarining vazni 360 g, urg'ochilariniki 550 g gacha yetishi mumkin.

**Эластичная черепаха** – вид сухопутных черепах.

Панцирь сильно уплощён, мягкий на ощупь. Длина панциря 15–18 см, самки немного крупнее самцов (вес самца 360 г, самки – 550г).



## Afrika kurakli toshbaqalari

## Африканские лопастные черепахи





**Afrika kurakli toshbaqalari** – uchtirnoqli toshbaqalar oilasiga mansub toshbaqalarning bir turidir.

Ular nisbatan ancha yirik suv toshbaqalari bo'lib, tanasining uzunligi zirhi bilan birgalikda 60 sm gacha yetadi. Ushbu tur vakillari ko'llarda, shuningdek yirik chuchuksuvli havzalarda yashaydilar.

**Африканские лопастные черепахи** – род черепах из семейства трёхкоготных черепах.

Довольно крупные водные черепахи с длиной карапакса до 60 см. Обитают в озёрах и прочих крупных пресных водоемах.



## Qoplonsimon toshbaqa
## Леопардовая черепаха

**Qoplonsimon toshbaqa** yoki panterasimon toshbaqa – quruqlikda yashovchi toshbaqalarning bir turidir. Ushbu tur vakillari kattaligi bo'yicha Afrika toshbaqalari orasida (pixli toshbaqalardan keyin) ikkinchi o'rinda turadi.

Bu yirik toshbaqalarning zirhli kosasi uzunligi 70 sm gacha yetadi. Katta yoshdagi bu turga mansub toshbaqaning vazni 50 kg ni tashkil etishi mumkin.



**Леопардовая черепаха** или пантеровая черепаха – вид сухопутных черепах. Вторая по величине африканская черепаха (после шпороносной).

Крупная черепаха, длина её панциря достигает 70 см. Масса взрослой особи может составлять 50 кг.





## Ko'zdor toshbaqa
## Глазчатая черепаха



**Ko'zdor toshbaqa** – quruqlikda yashovchi toshbaqalarning bir turidir.

U nihoyatda noyob tur bo'lganligi sababli olimlar tomonidan kam o'rganilgan. Zirhli kosasining uzunligi 13,3 sm gacha boradi. Zirh kosasining rangi qoramtir bo'lib, qalqonchalarida xuddi quyosh nurlarini eslatuvchi sarg'imtil chiziqlari bor.

**Глазчатая черепаха** – вид сухопутных черепах. Очень редка и плохо изучена.

Длина панциря до 13,3 см. Карапакс чёрный с жёлтыми лучами на щитках.



## Misr toshbaqasi
## Египетская черепаха



**Misr toshbaqasi** – quruqlikda yashovchi toshbaqalar turiga mansubdir.

Mayda toshbaqalardan. Erkak vakillarining zirhli kosasi uzunligi 10 sm. Urg'ochilarida esa 13 sm gacha yetadi. Kosalari sarg'imtil tusga ega bo'lib, qalqonlarining chetki qismi qo'ng'ir-sariq hoshiyaga ega.

**Египетская черепаха** – вид сухопутных черепах.

Мелкая черепаха. Длина карапакса самцов до 10 см, самок – до 13. Панцирь имеет желтоватую окраску с буро–жёлтой каймой по краям щитков.





## Африканская пеломедуза





**Afrika pelomeduzasi** yoki dubulg'ali pelomeduza – pelomeduzasimon toshbaqalar turiga mansubdir. U pelomeduza zotining yagona vakili hisoblanadi.

Ushbu turga oid toshbaqalar unchalik katta bo'lmaydi,ularning zirhli kosalari uzunligi 25 sm, boshlari nisbatan kattaroq bo'lib, o'ziga xos tartibdagi himoya qalqonchalari bilan muhofazalangandir.

**Африканская пеломедуза** или шлемоносная пеломедуза – вид семейства пеломедузовые черепахи, единственный представитель рода пеломедузы.

Небольшая черепаха с плоским панцирем длиной до 25 см и крупной, покрытой правильными щитками головой.



# Yirik qora ilon
# Гигантские гадюки

**Yirik qora ilon** – qora ilonlar oilasiga kiruvchi zaharli ilon turidir.

Bu turga mansub ilonlarning tana uzunligi 2 m gacha yetadi.

**Гигантские гадюки** – род ядовитых змей семейства Гадюковых.

Длина этих змей достигает 2 м.







## Buramaqosh qora ilon
## Пучкобровая гадюка



**Buramaqosh qora ilon** – Afrika qora ilonlari zotiga mansub tur vakilidir.

Bu ilon nisbatan ancha yo'g'on tanaga ega bo'lib, uning tanasi g'adir-budir teri bilan qoplangan, har bir ko'zining ustida xuddi qoshlarni eslatuvchi 2,3 yoki 4 ta to'mtoq shoxchalari bor.

Buramaqosh qora ilonlarning uzunligi 50 sm atrofida bo'ladi.



**Пучкобровая гадюка** – змея из рода африканских гадюк.

Толстая гадюка с килеватой чешуёй и пучком из 2,3 или 4 рожек над каждым глазом.

Длина этих змей достигает около 50 см.



- Qirol bo‘g‘ma iloni
- Королевский питон





**Qirol bo‘g‘ma iloni** yoki sharsimon bo‘g‘ma ilon (ba’zan uni koptoksimon bo‘g‘ma ilon ham deydilar) – haqiqiy bo‘g‘ma ilonlar oilasiga kiruvchi zaharsiz ilondir.

Bu zotga mansub eng kichik bo‘g‘ma ilonlarning uzunligi ham 1,2–1,5 m ga yetadi.

**Королевский питон** или шаровидный питон, или питон-мяч – неядовитая змея из рода настоящих питонов.

Один из самых мелких питонов, достигает в длину 1,2–1,5 м.



Ko'lvor ilon
Гюрза





**Ko'lvor ilon** – qora ilonsimonlarning yirik qora ilonlar oilasiga mansub zaharli ilon turidir.

Ularning tana uzunligi dumi bilan qo'shib hisoblaganda 2m, vazni esa 3 kg gacha yetadi.

**Гюрза** – вид ядовитых змей из рода гигантских гадюк семейства гадюковых.

Длина тела вместе с хвостом может достигать почти 2 м, вес до 3 кг.



## Eflar
## Эфы

**Eflar** yoki sahro eflari – qora ilonsimonlar oilasiga kiruvchi ilon turidir.

Bu turga mansub ilonlarning tana uzunligi 90 sm gacha yetishi mumkin.

**Эфы** или песчаные эфы – род змей из семейства гадюковые.

Длина до 90 см.







**Qora mamba**
**Чёрная мамба**





**Qora mamba** – zaharli ilon turi bo'lib, u Afrikadagi ilonlar orasida eng xavfli va o'ta kuchli zaharga ega ilon hisoblanadi.

Qora mambaning uzunligi 2,4–3 metrgacha yetib, ba'zi turlari 4,5 metrni ham tashkil etishi mumkin. Bu turga mansub ilonlar soatiga 11 km tezlik bilan harakatlana oladilar.

**Чёрная мамба** – ядовитая змея, одна из наиболее опасных и ядовитых в Африке.

Достигает в длину 2,4–3 метра, отдельные экземпляры до 4,5 метров в длину. Она может передвигаться со скоростью до 11 км/ч.



- G‘arbiy yashil mamba
- Западная зелёная мамба



**G‘arbiy yashil mamba** – ushbu ilon ham zaharli ilonlar toifasidan.

G'arbiy yashil mamba yoki G‘arbiy Afrika yashil mambasi G‘arbiy Afrikaning seryomg‘ir o‘rmonlarida yashaydi. Ushbu ilonning o'rtacha tana uzunligi 140–210 sm bo‘ladi, ammo ba'zan ular orasida 300 sm gacha yetadiganlari ham uchrab turadi.



**Западная зелёная мамба** – ядовитая змея.

Западная зеленая мамба или западноафриканская зеленая мамба встречается в дождевых лесах западной Африки. Средняя длина 140–210 см, но иногда змеи вырастают до 300 см.



## Daraxtda yashovchi Afrika qora iloni
## Древесные африканские гадюки





**Daraxtda yashovchi Afrika qora iloni** yoki changalzor qora iloni – qora ilonsimonlar oilasiga mansub zaharli ilon turidir.

Bu turdagi ilonlar Afrikaning tropik hududlarida keng tarqalgan, ularning tana uzunligi 75 sm gacha yetadi. Ular uncha baland bo'lmagan daraxtlarning kovaklarida,butazorlar ichida yashaydi. Bu turdagi ilonlar bolalarini tuxumdan ochmaydi balki tiriklay tug'adilar.

**Древесные африканские гадюки** или кустарниковые гадюки – род ядовитых змей семейства гадюковых.

Распространены в тропической Африке, длина тела до 75 см, живут в кронах невысоких деревьев и кустарников, яйцеживородящие.



## Qalqonsimon ko'zoynakli ilon
## Щитковые кобры

**Qalqonsimon ko'zoynakli ilon** – Aspidlar oilasiga kiruvchi zaharli ilon turidir.

Qalqonsimon ko'zoynakli ilonlar yer-ostida umr kechiruvchi jonivorlar hisob-lanadi, shu sababli ularning jag'lari orasida o'ziga xos qalqonchasi bo'lib, u old tomon-dan biroz qiya kesilgandek, orqa tomondan esa xiyla kengayib ko'rinadi, ushbu qalqonchaning chetki qismlari esa ilonning tumshuqlari ustidan turtib chiqib turadi.



**Щитковые кобры** – род ядовитых змей из семейства Аспиды.

Щитковые кобры являются роющими животными, поэтому имеют увеличенный межчелюстной щиток, спереди косо срезанный, а сзади расширенный, а его боковые края выступают поверх рыла.



## Qo‘ng‘ir moki chuvalchang
## Бурая двуходка





**Qo‘ng‘ir moki chuvalchang** yoki kulrang blanus – Amphisbeanidae oilasiga mansub Blanus turiga xos sudralib yuruvchi jonivordir.

Qo‘ng‘ir moki chuvalchang – uncha katta bo‘lmagan oyoqsiz sudralib yuruvchidir, u odatda yerostida kun kechiradi. Katta yoshdagilarining tana uzunligi 10–20 sm gacha yetadi.

**Бурая двуходка** или пепельный бланус – вид пресмыкающихся рода Blanus семейства Amphisbaenidae.

Бурая двуходка – небольшая безногая рептилия, роющий вид. Взрослые особи достигают 10–20 см в длину.



## Antiqa go‘ngqo‘ng‘iz
## Священный скарабей

**Antiqa go‘ngqo‘ng‘iz** – plastinkasimon mo‘ylovli qo‘ng‘izlar oilasining go‘ngqo‘ng‘izlar turiga mansubdir.

Ularning rangi qora, biroq yaltiroq emas (ammo qari qo‘ng‘izlarning tana qoplamasi ba’zan eskirib yaltiraydigan bo‘lib qoladi), tana uzunligi 25–37 mm bo‘ladi.



**Священный скарабей** – вид жуков рода Скарабеи из семейства Пластинчатоусые.

Чёрный, матовый (старые потертые жуки становятся блестящими) жук длиной 25–37 мм.







## Oddiy Karkidon qo'ng'iz
## Жук-носорог обыкновенный





**Oddiy Karkidon qo'ng'iz** – plastinkasimon mo'ylovli qo'ng'izlar oilasiga mansubdir.

Uning tana uzunligi 25–43 mm. Ushbu qo'ng'izning tanasi yaltiroq; to'q qo'ng'ir-qizg'ish yoki qizg'ish-qo'ng'ir rangda bo'ladi.

**Жук-носорог обыкновенный** – жук принадлежащий к семейству пластинчатоусые.

Длина тела 25–43 мм. Жук блестящий; темно-буро-красного, красно-бурого цвета.



## Goliaf qo‘ng‘izlari
## Жуки-голиафы



**Goliaf qo‘ng‘izlari** – Plastinkasimon mo‘ylovli qo‘ng‘izlar oilasining Tillaqo‘ng‘izlar kenja turiga mansub yirik va o‘ta yirik qo‘ng‘izlar turidir.

Ushbu turga mansub qo‘ng‘izlar dunyodagi eng og‘ir vaznli qo‘ng‘izlar hisoblanadi. Ayrim ma’lumotlarga ko‘ra ularning og‘irligi 47 gramm, ba’zi manbalarga ko‘ra esa 80–100 gramm gacha yetadi.

**Жуки-голиафы** – род крупных и очень крупных жуков из подсемейства Бронзовки в составе семейства Пластинчатоусые.

Представители рода считаются одними из самых тяжелых жуков в мире – могут весить согласно одним данным до 47 грамм, а по другим – до 80–100 грамм.



## Mantyukorlar
## Мантикоры





**Mantyukorlar** – Afrika qo'ng'izlarining sassiqqo'ng'izlar oilasi tarkibidagi sakrovchi qo'ng'izlar kenja turiga mansub endemik turidir.

Ushbu tur vakillari o'ta yirik qo'ng'izlardir, sakrovchi qo'ng'izlarning eng yirik turlarining tanasi uzunligi 7 sm gacha (jag'lari bilan birga) yetishi mumkin. Rangi qoramtir-jigarrang bo'ladi.

**Мантикоры** – эндемичный африканский род жуков из семейства жужелиц и подсемейства скакунов.

Крупные жуки, самые крупные представители подсемейства скакунов, длиной до 7 см (вместе с челюстями). Окраска чёрно-коричневая.



- Iforli xushqad
- Красотел пахучий



**Iforli xushqad** – Sassiqqo'ng'izlar oilasiga mansub yirik qo'ng'izdir.

Bu yirik sassiqqo'ng'iz o'zining qanotlari ustidagi nihoyatda yaltiroq tillarang-moviy-yashilsimon qobiqlari bilan alohida ajralib turadi. Uning boshi va yelkasining old tomoni to'q-moviy tusda yoki moviy-yashil tusda bo'ladi. Tanasining uzunligi 21mm dan 35 mm gacha yetadi.



**Красотел пахучий** – крупный жук из семейства жужелиц.

Крупная жужелица, отличается яркими золотисто-сине-зелёными надкрыльями. Голова и переднеспинка тёмно-синие или сине-зелёные. Длина тела 21–35 мм.



**Mushkli mo'ylovdor**

**Усач мускусный**



**Mushkli mo'ylovdor** – haqiqiy mo'ylovdor qo'ng'izlarning transplearktik ko'p zonali turiga mansub qo'ng'izdir.

Uning tana uzunligi 13–38 mm ni tashkil etadi.

**Усач мускусный** – транспалеарктический полизональный вид жуков подсемейства настоящих усачей.

Длина тела жуков 13–38 мм.



## O‘likbosh kapalak
## Мёртвая голова



**O‘likbosh kapalak** yoki Odam ato kapalagi – mazaxo‘rak kapalaklar oilasiga mansub yirik va haybatli kapalak turidir.

Uning old qanotlarining uzunligi 40–50mm, ba'zan hatto – 70 mm gacha yetishi mumkin. Qanotlarini yozganda bu ko‘rsatkich 90–115 mm gacha boradi.



**Мёртвая голова** или Адамова голова – крупная массивная бабочка принадлежащая к семейству бражников.

Длина переднего крыла 40–50 мм, максимально – до 70 мм. Размах крыльев 90–115.





Yelkansimon antimax kapalagi
Парусник антимах





**Yelkansimon antimax kapalagi** – Yelkansimon kapalaklar oilasiga mansub kunduz kuni hayot kechiruvchi yirik kapalakdir.

U Afrika hududida yashaydigan kunduzgi kapalaklarning eng haybatlisi sanaladi. Bu ulkan kapalakning qanotlari yozilgan holatda 18–23 sm gacha yetadi. Ularning ayrim vakillarida bu ko'rsatkich 25 sm gacha yetishi qayd etilgan.

**Парусник антимах** – крупная дневная бабочка из семейства Парусники.

Самая крупная дневная бабочка на территории Африки. Крупная бабочка с размахом крыльев 18 – 23 см. Размах крыльев отдельных особей – до 25 см.



- Katta sadafkapalak
- Перламутровка большая





**Katta sadafkapalak** yoki katta o'rmon sadafkapalagi – nimfalidlar oilasiga mansub kunduz kuni hayot kechiruvchi kapalak turidir.

Ushbu tur vakillarining old qanoti uzunligi 27–36 mm. Qanotlarining yozilgan holatdagi uzunligi esa – 75 mm-ni tashkil etadi.

**Перламутровка большая** или Перламутровка большая лесная – дневная бабочка из семейства нимфалид.

Длина переднего крыла – 27–36 мм. Размах крыльев до 75 мм.



**Zalmoksis yelkansimon kapalagi**
**Парусник залмоксис**





**Zalmoksis yelkansimon kapalagi** – Yelkansimon kapalaklar oilasiga mansub, kunduz kuni hayot kechiruvchi yirik kapalak turidir. U kattaligi bo'yicha (Yelkansimon Antimax kapalagidan keyin) Afrikadagi yelkansimon kapalaklar orasida ikkinchi o'rinda turadi.

Uning qanotlari yozilgan holatda 13–15 sm gacha yetishi mumkin.

**Парусник залмоксис** – крупная дневная бабочка из рода Парусники. Второй по величине (после парусника антимаха) африканский парусник.

Размах крыльев 13 – 15 см.



## Admiral kapalagi
## Адмирал

**Admiral kapalagi** – ushbu kapalak ham nimfalidlar oilasiga mansub, kunduz kuni hayot kechiruvchi kapalak turidir.

Uning old qanotlari uzunligi 26–34,5 mm. Qanotlarini yozgandagi holati 50–65 mm ni tashkil etadi.



**Адмирал** – дневная бабочка из семейства Нимфалиды.

Длина переднего крыла 26 – 34,5 мм. Размах крыльев 50 – 65 мм.





**Chetko'zli Egeriya**
**Краеглазка Эгерия**





**Chetko'zli Egeriya** – Nimfalidlar oilasi tarkibiga kiruvchi baxmalsimonlar kenja turiga xos kunduz kuni hayot kechiruvchi kapalak turidir.

Uning old qanotlari uzunligi 19–22 mm. Qanotlarining yozilgandagi uzunligi 38–44 mm ni tashkil etadi.

**Краеглазка Эгерия** – дневная бабочка из подсемейства Бархатницы семейства Нимфалиды.

Длина переднего крыла 19–22 мм. Размах крыльев 38–44 миллиметров.



## Katta qo‘ng‘irko‘z baxmalsimon kapalak
## Буроглазка большая Бархатка





**Katta qo‘ng‘irko‘z baxmalsimon kapalak** yoki baxmalsimon kapalak, ba'zan uni ma'yus chetko'zli kapalak ham deb ataydilar – baxmalsimonlar oilasiga mansub, kunduz kuni hayot kechiruvchi kapalak turidir.

Uning old qanotlari uzunligi 23–28 mm dan iborat.

**Буроглазка большая Бархатка** или Печальная краеглазка – вид дневных бабочек из семейства бархатниц.

Длина переднего крыла 23–28 мм.



## Qo‘ng‘irko‘z Megera kapalagi
## Буроглазка Мегера





**Qo‘ng‘irko‘z Megera kapalagi** yoki Chetko‘zli megera – baxmalsimon kapalaklar oilasiga mansub, kunduz kuni hayot kechiruvchi kapalak turidir.

Uning old qanotlari uzunligi 21–23 mm dan iborat.

**Буроглазка Мегера** или Краеглазка мегера – вид дневных бабочек из семейства бархатниц.

Длина переднего крыла 21–23 мм.



## Sariq za'faron kapalagi
## Желтушка шафрановая

**Sariq za'faron kapalagi** – sariqkapalaklar oilasiga mansub, kunduz kuni hayot kechiruvchi kapalak turidir.

Uning old qanotlari uzunligi 23–27 mm ni tashkil etadi.

**Желтушка шафрановая** – дневная бабочка из семейства Желтушки.

Длина переднего крыла 23 – 27 мм.





## Itshumurt kapalagi
## Крушинница





**Itshumurt kapalagi** yoki limon kapalagi – oqkapalaklar oilasiga mansub, kunduz kuni hayot kechiruvchi kapalak turi.

Old qanotlarining uzunligi – 26–31 mm. Qanotlarini yozgandagi holati – 52 – 60 mm gacha yetadi.

**Крушинница** или лимонница – дневная бабочка из семейства белянок.

Длина переднего крыла 26–31 мм. Размах крыльев до 52–60 мм.



## Sahro chigirtkasi
## Пустынная саранча





**Sahro chigirtkasi** yoki Afrika chigirtkasi – haqiqiy chigirtkasimonlar oilasiga kiruvchi chigirtka turi.

Ushbu tur vakillari Afrika qishloq xo'jaligi ekinlarining ashaddiy zararkunandasi hisoblanib, ular bir necha ming yillardan buyon Afrika ekinzorlariga katta ziyon yetkazib keladi.

**Пустынная саранча** или африканская саранча – вид рода семейства Настоящие саранчовые.

Вредитель сельскохозяйственных культур в Африке, приносящий серьезный урон сельскому хозяйству уже на протяжении нескольких тысячелетий.



## Uchar chigirtka
## Перелётная саранча





**Uchar chigirtka** yoki Osiyo chigirtkasi – chigirtkasimonlar oilasiga mansub to'g'riqanotli chigirtka turi.

Uzunligi – 35–45 mm. Bu turdagi alohida yashovchi chigirtkalar tabiatga u qadar zarar keltirmaydi, ammo ular yirik to'dasi birlashgudek bo'lsalar, butun boshli shaharlarni ham o'simliklarsiz qoldirishga qodir.

**Перелётная саранча** или азиатская саранча – вид прямокрылых из семейства саранчёвых.

Длина 35–45 мм. Саранча, живущая по отдельности, не наносит вреда природе, но стаи могут оставлять без растений целые города.



## Afrika Qoraqushi (Kalxati)
## Африканский гриф



**Afrika Qoraqushi** (Kalxati) – kalxatsimonlar oilasiga mansub yirtqich qush turidir. Ular Gups turiga kiradi, ba'zan esa Pseudogups turi sifatida ham tilga olinadi.

Afrikadagi Sahroi kabirning janubida yashaydi.Umumiy vazni – 4,2–7,2 kg gacha, tana uzunligi esa 94 sm gacha yetadi. Qanotlari yozilgan holatda – 218 sm.

**Африканский гриф** – вид хищных птиц подсемейства грифовые. Входит в род Gyps, иногда включается в род Pseudogyps

Обитает в Африке южнее Сахары.

Вес 4,2–7,2 кг, длина около 94 см, размах крыльев до 218 см.



## Afrika oqtomoqli kalxati

## Африканский белогорлый гриф





**Afrika oqtomoqli kalxati** yoki Oqbosh kalxat – yirtqich qushlar oilasiga mansub. Ular yagona Oqtomoqli kalxatlar turini tashkil etadi.

Sahroi Kabirning janubida keng tarqalgan. Tanasi uzunligi – 75–80 sm. Qanotlari uzunligi – 60–65 sm. Vazni esa 3–5 kg bo'ladi.

**Африканский белогорлый гриф** или белоголовый гриф – вид хищных птиц. Образует монотипичный род африканские белогорлые грифы.

Распространён в Африке южнее Сахары.

Длина тела 75–80 см, длина крыла 60–65 см, масса 3–5 кг.



## Afrika quloqli kalxati
## Африканский ушастый гриф

**Afrika quloqli kalxati** – Qirg'iysimonlar oilasining kalxatlar kenja turiga mansub qush. Ushbu zotning yagona turidir.

Kalxatlar orasida eng yiriklaridan biri. Ularning tana uzunligi – 115 sm. Qanotlarining yozilgandagi holati – 3 m gacha. Vazni – 10–14 kg bo'ladi.

**Африканский ушастый гриф** – птица семейства ястребиных, подсемейства грифовых. Единственный вид рода.

Один из самых крупных грифов. Длина тела до 115 см, размах крыльев до 3 метров; вес – 10–14 кг.







## Oqboshli Qumoy
## Белоголовый сип





**Oqboshli Qumoy** – qirg'iysimonlar oilasiga mansub yirik yirtqich qush turi.

Ushbu turdagi qushlar qirg'iylar orasida eng yirigi hisoblanib, ularning qanotlari va dumlari nihoyatda keng bo'ladi. Tana uzunligi – 93–110 sm ni tashkil etib, qanotlarining yozilgan holati 234–269 sm dan iboratdir.

**Белоголовый сип** – крупная хищная птица семейства ястребиных.

Очень крупный гриф с длинными широкими крыльями и широким хвостом. Длина тела 93–110 см, размах крыльев 234–269 см.



**Burgut**
**Беркут**



**Burgut** – qirg'iysimon yirtqich qushlar ichida eng ma'lum va mashhuri hisoblanib, u o'z oilasidagi eng yirik qushdir.

Ushbu tur vakillari o'ta yirik bo'libgina qolmasdan nihoyatda kuchli hamdir. Ularning tana uzunligi – 76–93 sm. Qanotlarining yozilgandagi holati– 180–240 sm. Vazni 2,8–4,6 kg ni tashkil etadi.



**Беркут** – одна из наиболее известных хищных птиц семейства ястребиных, самый крупный орёл.

Очень крупный и сильный орёл – длина тела 76–93 см, размах крыльев 180–240 см. Их вес 2,8 до 4,6 кг.



## Jangovar lochin
## Боевой орёл





**Jangovar lochin** – qirg'iysimonlar oilasiga kiruvchi yirtqich qush turi. Jangovar lochinlar avvalo Sahroi Kabirning janubidagi ochiq hududlarda ko'p uchraydi.

Ularning bo'yi 78–96 sm ni tashkil etadi. Qanotlarining yozilgandagi holati esa –188–227 sm dan iboratdir. Vazni 3,01 kg dan 5,65 kg gacha boradi.

**Боевой орёл** – хищная птица из семейства ястребиных . Боевые орлы встречаются прежде всего в открытых местностях Африки к югу от Сахары.

В целом их рост насчитывает от 78 до 96 см, а размах крыльев составляет от 188 до 227 см. Вес от 3,01 –5,65 кг.



## Afrika qarchig'ayi
## Африканский тетеревятник

**Afrika qarchig'ayi** – qirg'iysimonlar oilasiga kiruvchi yirtqich qush turi.

Ushbu qushning tana uzunligi 36–39 sm. U asosan doimiy yashillikka burkangan o'rmonlarda, daryolar bo'yidagi butazorlarda, shuningdek Afrika janubiy, sharqiy hamda shimoliy hududlaridagi ekzotik ekinzorlarda ko'p uchraydi.



**Африканский тетеревятник** – вид хищных птиц из семейства ястребиных.

Птица длиной от 36 до 39 см. Встречается в вечнозелёных лесах, приречных лесах в засушливых местностях и в экзотических плантациях на юге, востоке и севере Африки.





**Sapsan**
**Сапсан**





**Sapsan** – lochinsimon qushlar oilasiga mansub, Antarktidadan tashqari deyarli barcha qit'alarda uchraydigan yirtqich qush turidir.

Uning tana uzunligi – 34–50 sm. Qanotlarining yozilgandagi holati – 80–120 sm. Bu qushlarning moda(urg'ochi)lari, nar(erkak)lariga nisbatan og'irroq bo'lib, ular 910 gramm dan – 1500 gramm gacha chiqadi. Nar sapsanlar esa ular og'irligining uchdan biricha – 440–750 gramm atrofida bo'ladi.

**Сапсан** – хищная птица из семейства соколиных, распространённая на всех континентах, кроме Антарктиды.

Длина составляет 34–50 см, размах крыльев 80–120 см. Самки сапсанов заметно крупнее самцов: они весят в пределах 910–1500 г, тогда как самцы примерно на треть меньше и их вес составляет 440–750 г.



## Quloqli Boyo'g'li (Boyqush)
## Ушастая сова



**Quloqli Boyo'g'li** – boyqushsimonlar oilasiga mansub qush turi.

Uning ozuqasini asosan mayda kemiruvchilar, ya'ni sichqonlar va yumronqoziqlar, shuningdek hasharotlar, ba'zan uya qurish chog'ida qushlar ham tashkil etadi. Boyqushning o'rtacha tana uzunligi 31–37 sm. Qanotlari yozilgandagi holati – 86–98 sm gacha yetishi mumkin.

**Ушастая сова** – птица из семейства совиных.

Главную пищу её составляют мелкие грызуны, преимущественно мыши и полёвки, также насекомые, во время гнездования – и птицы. Средних размеров сова, достигающая 31–37 см длиной и 86–98 см в размахе крыльев.



## Rangpar ukki
## Бледный филин



**Rangpar ukki** – Afrikada keng tarqalgan Boyqushlar oilasiga mansub qush turi.

Rangpar ukkining tana uzunligi 53–61 sm gacha yetadi.

**Бледный филин** – широко распространённый в Африке вид птиц семейства совиных.

Бледный филин достигает длины от 53 до 61 см.



## Afrika Katta Tuvalog'i
## Африканская большая дрофа

**Afrika Katta Tuvalog'i** – tuvaloqsimonlar oilasiga kiruvchi qush turi.

Afrika Katta Tuvalog'i oddiy tuvaloqlarga nisbatan ancha yirik qush bo'lib, uning tana uzunligi 120 sm gacha umumiy og'irligi esa 19 kg gacha yetishi mumkin.



**Африканская большая дрофа** – птица семейства дрофиных.

Африканская большая дрофа – птица более крупная, чем обыкновенная дрофа. Достигает 120 см в длину и веса до 19 кг.





## Afrika Marabusi

## Африканский марабу



**Afrika Marabusi** (yoki Marbuti) – laylaksimonlar oilasiga mansub qush turi.

Marabu Afrika savannalaridagi suv havzalari atrofida hayot kechiradi. U ovqatlanish uchun hatto shoqollar hamda qirg'iylar bilan ham tengma-teng olishadi, bu borada unga nihoyatda kuchli tumshuqlari qo'l keladi.

**Африканский марабу** – птица из семейства аистовых.

Марабу обитают в африканских саваннах, недалеко от водоёмов. В борьбе за падаль вступают в драку с шакалами и грифами, применяя для этого свой мощный клюв.



## Afrika Merov laylagi
## Африканский аист-разиня



**Afrika Merov laylagi** – laylaksimonlar oilasiga mansub qush turi.

Ushbu qushning tana uzunligi 80–94 sm. Vazni esa 1 kg dan 1,3 kg gacha yetishi mumkin.

**Африканский аист-разиня** – птица из семейства аистовых.

Африканский аист-разиня достигает длины от 80 до 94 см и веса от 1 до 1,3 кг.



Afrika Tumshuqdor Laylagi

Африканский клювач



**Afrika Tumshuqdor Laylagi** – laylaksimonlar oilasiga kiruvchi qush turi.

Ushbu qushlarning patlari to qanotlarining chetki qismiga qadar faqat oq rangdadir. Barcha laylaklarniki kabi uzun oyoqlari rangi esa qizg'ish-olovrang bo'ladi. Tumshuqdor laylaklarning tana uzunligi 1 m gacha yetishi mumkin.

**Африканский клювач** – птица семейства аистовых.

Оперение полностью белое, вплоть до чёрных краёв крыльев. Длинные, типичные для аистов ноги красновато-оранжевые. Достигающие 1 м в длину.



Oqqorinli laylak

Белобрюхий аист

**Oqqorinli laylak** – laylaksimonlar oilasi vakili bo'lgan qush turidir.

Ushbu laylakning tana uzunligi taxminan – 73 sm, vazni esa 1 kg atrofida bo'ladi.

**Белобрюхий аист** – вид птиц семейства аистовых.

Белобрюхий аист примерно 73 см длиной и весит около 1 кг.





## Oqbo‘yinli Laylak
## Белошейный аист



**Oqbo‘yinli Laylak** – laylaksimonlar oilasiga kiruvchi qush turi.

Bu turdagi laylakning tana uzunligi 80 sm dan 90 sm gacha yetishi mumkin.

**Белошейный аист** – птица из семейства аистовых.

Белошейный аист длиной от 80 до 90 см.



# Qora laylak
# Чёрный аист



**Qora laylak** ham laylaksimonlar oilasiga kiruvchi qushlardan biridir.

Uning qanotlari uzunligi o'rtacha hisobda 54 sm ni tashkil qilib, tana vazni 3 kg gacha yetishi mumkin.

**Чёрный аист** – птица из семейства Аистовые.

Длина крыла у него в среднем 54 см, вес около 3 кг.



Oq kolpitsa
Белая колпица





**Oq kolpitsa** – ibissimonlar oilasiga kiruvchi qush turi.

Oq kolpitsalarning tana uzunligi 73 sm dan 90 sm gacha, vazni esa 2 kg gacha boradi. Ularning eng ko'p tarqalgan hududi asosan Afrikaning Sahroi Kabirdan janubrog'idagi yerlaridir, shuningdek bu qushlarni Madagaskarda ham tez-tez uchratish mumkin.

**Белая колпица** – вид птиц из семейства ибисовых.

Белые колпицы достигают длины от 73 до 90 см и веса до 2 кг. Их основным ареалом распространения является Африка к югу от Сахары, а также Мадагаскар, где они довольно часто встречаются.



## Taqirbosh ibis
## Лысые ибисы

**Taqirbosh ibis** – ibissimonlar oilasiga mansub qush turidir.

Mazkur qushning tana uzunligi 70–80 sm, vazni esa 1,2–1,5 kg gacha yetishi mumkin. Taqirbosh ibislarni faqat Afrikaning tog'li mintaqalaridagina uchratish mumkin.



**Лысые ибисы** – род птиц семейства ибисовых.

Птица с длиной тела до 70–80 см и массой до 1,2–1,5 кг. Лысый ибис распространён только в горных регионах Африки.



## Muqaddas ibis
## Священный ибис





**Muqaddas ibis** – ibissimonlar oilasiga mansub qush turi.

Bu qushlar odatda to'da-to'da bo'lishib, daraxtlarga in quradilar, ko'pincha ular o'zlariga o'xshash, masalan Qarqara kabi uzunoyoqli qushlar bilan ham yonma-yon yashaydilar. Ular turli cho'p va xodalardan o'zlariga in qurib, 2–3 tadan tuxum qo'yadi. Baliq, qurbaqa hamda turli hasharotlarni yeb kun kechiradilar. Ularning Muqaddas ibis deb nomlanishiga sabab – qadimgi Misrda ular chindan ham muqaddas qush sanalgan ekan.

**Священный ибис** – птица из семейства ибисовых.

Гнездится колониями на деревьях, часто вместе с другими голенастыми, например с цаплями. Строит гнёзда из палок, кладёт 2–3 яйца. Ест рыб, лягушек и насекомых.Название своё получил потому, что был священной птицей в древнем Египте.



## Katta oq qarqara
## Большая белая цапля

**Katta oq qarqara** – qarqarasimonlar oilasiga mansub botqoqlikda kun kechiruvchi yirik qushdir.

Ushbu qushning gavdasi chindan ham ancha haybatli, uning bo'yi 94–104 sm, qanotlarining yozgandagi holati 131–145 sm. Bu turga mansub katta yoshdagi qushlarning vazni 912–1140 gramm atrofida bo'ladi.

**Большая белая цапля** – крупная болотная птица семейства цаплевых.

Достаточно крупная птица 94–104 см высотой и размахом крыльев 131–145 см. Вес взрослых птиц около 912–1140 г.





## Kulrang qarqara
## Серая цапля



**Kulrang qarqara** – botqoqlikda yashovchi qarqarasimonlar oilasiga mansub yirik qush.

Kulrang qarqaraning jussasi xiyla yirik bo'lib, tana uzunligi 90–100 sm ni tashkil etadi. Qanotlarining yozgandagi holati 175–195 sm. Katta yoshdagi qarqaralarning vazni 2 kg gacha boradi.

**Серая цапля** – крупная болотная птица семейства цаплевых.

Крупная птица 90–100 см длиной, с размахом крыльев 175–195 см и весом до 2 кг у взрослых особей.



- Malla qarqara
- Рыжая цапля

**Malla qarqara** – qarqarasimonlar oilasiga mansub qush.

Malla qarqara Kulrang qarqaraga nisbatan biroz kichikroq bo'ladi.

**Рыжая цапля** – птица из семейства цаплевых.

Рыжая цапля немного меньше, чем серая цапля.





Misr qarqarasi
Египетская цапля



**Misr qarqarasi** – qarqarasimonlar oilasiga mansub, Misr qarqarasi nomiga ega yagona tur vakili bo'lgan qushdir.

Misr qarqarasi boshqa qarqaralardan farqli tarzda, anchagina kalta tumshuqqa ega . Bu qush qanotlarining uzunligi 22–25 sm bo'ladi.

**Египетская цапля** – птица семейства цаплевых, единственный представитель монотипичного рода Египетские цапли.

Египетская цапля, в отличие от других цапель, имеет короткий клюв. Длина крыла 22–25 см.



## Oddiy yoki pushtirang flamingo
## Обыкновенный или розовый фламинго



**Oddiy yoki pushtirang flamingo** (yoki Qizil g‘oz) – g‘ozsimonlar oilasiga mansub qush turidir.

Bu turdagi nar va moda qushlar pati nafis och pushti rangda bo‘ladi, qanotlari esa – qirmizi, katta qanotlari qora tuslidir. Ularning umumiy tana uzunligi – 130 sm, vazni esa 3,4 – 4 kg gacha yetishi mumkin.

**Обыкновенный или розовый фламинго** – птица из отряда фламингообразных.

Оперение у самцов и самок – нежно-розового цвета, крылья – пурпурно-красные, маховые – чёрные. Общая длина тела – 130 см, птицы достигают массы 3,4–4 кг.



**Egartumshuq yabiru**
**Седлоклювые ябиру**



**Egartumshuq yabiru** – laylaksimonlar oilasiga mansub qush turidir.

Bu qushlar anchagina yirik jussaga egadir. Ularning bo'yi – 140 sm dan oshadi, qanotlarining yozgandagi holati 230 sm dan 270 sm gacha bo'ladi.

**Седлоклювые ябиру** – один из родов семейства аистовых.

Весьма крупные – их величина превышает 140 см, а размах крыльев составляет от 230 до 270 см.



- Oddiy shaqshaq
- Обыкновенная кваква



**Oddiy shaqshaq** yoki tungi qarqara – qarqarasimonlar oilasiga mansub qush turi.

Shaqshaqning bo'yni boshqa qarqarasimonlarga nisbatan ancha kalta, tumshug'i ham xiyla kalta, biroq o'ta kuchlidir.

**Обыкновенная кваква** или ночная цапля – птица семейства цаплевых.

Кваква имеет короткую по сравнению с другими цаплями шею и короткий, но крепкий и мощный клюв.



Afrika yakanasi

Африканская якана



**Afrika yakanasi** – loyxo'raksimonlar oilasiga mansub qush turidir.

Ushbu qushning o'ziga xos va betakror jihati uning o'ta uzun va katta panjalari va tirnoqlaridir. Afrika yakanalarining bo'yi 30 sm gacha boradi.

**Африканская якана** – африканская птица отряда ржанкообразных .

Наиболее заметными чертами африканской яканы являются огромные серые пальцы и когти. Величина африканских якан достигает 30 см.



## Afrika tuyaqushi
## Африканский страус

**Afrika tuyaqushi** – bugungi kunda tuyaqushsimonlar oilasini tashkil etuvchi yagona, uchmaydigan qush turidir.

Afrika tuyaqushi davrimizning eng yirik qushi hisoblanadi: uning balandligi 300 sm gacha, vazni esa 220 kg gacha yetishi mumkin.



**Африканский страус** – нелетающая птица, единственный современный представитель семейства страусовых.

Африканский страус – самая крупная из современных птиц: его рост достигает 300 см, масса до 220 кг.





## Sariqtumshuqli yovvoyi oʻrdak
## Желтоносая кряква



**Sariqtumshuqli yovvoyi oʻrdak** – *oʻrdaksimonlar oilasining daryo oʻrdaklari kenja turiga mansub qushdir.*

Bu turga oid oʻrdaklar asosan kulrang patlari hamda qoʻngʻirsimon boshlari bilan, shuningdek och sariq tumshuqlari bilan ajralib turadi. Ularning tana uzunligi 51–58 sm boʻladi.

**Желтоносая кряква** – вид уток рода речные утки.

Утка отличается в основном серым оперением, с темной головой и ярко желтым клювом. Длина тела 51–58 см.



## Afrika kengburunli o‘rdagi
## Африканская широконоска

**Afrika kengburunli o‘rdagi** – haqiqiy o'rdaklar oilasiga mansub, daryo o'rdaklari turiga kiruvchi qushdir.

Ushbu turga xos o'rdaklarning tumshuqlari nisbatan uzunroq bo'ladi. Tana uzunligi 51–53 sm bo'lgan ushbu o'rdak o'zga yurtlarga uchib ketmasa-da, mavsumga ko‘ra ayrim mahalliy ko‘chishlarni amalga oshirishi mumkin.

**Африканская широконоска** – вид настоящих уток рода речные утки .

У этого вида уток длинный клюв. Эта утка длиной 51–53 см неперелётная, но совершает некоторые локальные сезонные передвижения.





**Afrika savkasi**
**Африканская савка**



**Afrika savkasi** – o'rdaksimonlar oilasiga mansub bo'lgan kichikroq jussali qushdir.

Bu mitti o'rdakning tana uzunligi 48–51 sm, vazni esa 450–700 gramm atrofida bo'ladi.

**Африканская савка** – небольшая птица из семейства утиных.

Небольшая утка длиной 48–51 см, масса 450–700 грамм.



**Ogar**
**Огарь**



**Ogar** yoki qizil o'rdak – o'rdaksimonlar oilasiga kiruvchi suvda yashaydigan qush, u chipor o'rdakka yaqin turdosh hisoblanadi.

Bu o'rdak nisbatan yirik, oyoqlari ham uzun qushdir. Uning tana hajmi va o'lchamlari xuddi chipor o'rdakniki kabidir: tana uzunligi 61–67 sm, qanotlarini yozgandagi holati 121–145 sm, vazni esa 1000–1600 gramm bo'ladi.

**Огарь** или красная утка – водоплавающая птица семейства утиных, родственная пеганке.

Это крупная и высокая на ногах утка. Размеры и пропорции сравнимые с таковыми у пеганки: длина 61–67 см, размах крыльев 121–145 см, масса 1000–1600 г.





## Afrika kichik g'ozi

## Африканский малый гусь



**Afrika kichik g'ozi** yoki Afrika yaltiroq churragi – o'rdaksimonlar oilasiga mansub qushdir.

Ushbu qushning tana uzunligi – 30–33 sm, vazni esa 260–285 gramm atrofida bo'ladi.

**Африканский малый гусь** или африканский блестящий чирок – птица семейства утиных.

Длина 30–33 см, масса 260–285 г.



- Jako
- Жако



**Jako** yoki kulrang to'tiqush – to'tiqushsimonlar oilasiga mansub qush turidir. U mazkur nom bilan ataluvchi zotning yagona tur vakili hisoblanadi.

Bu qushning tana uzunligi 30–35 sm, qanotlarini yozgandagi holati esa 65 sm, har bir qanotining uzunligi 22 sm, dumining uzunligi esa 8 sm keladi.

**Жако** или серый попугай – птица семейства попугаевых. Единственный вид рода.

Длина птицы достигает 30–35 см, размах крыльев 65, длина крыла 22, а хвоста 8 см.



## Uzunqanot Ryuppel to‘tiqushi
## Длиннокрылый попугай Рюппеля



**Uzunqanot Ryuppel to‘tiqushi** – to'tiqushsimonlar oilasiga mansub qushdir.

Bu qushning tana uzunligi 22–24 sm, dumining uzunligi 6 sm, vazni esa 121–156 gramm atrofida bo'ladi.

**Длиннокрылый попугай Рюппеля** – птица семейства попугаевых.

Длина тела 22–24 см, хвоста 6 см; вес–121–156 г.



## Qo‘ng‘irbosh uzunqanot to‘tiqush
## Буроголовый длиннокрылый попугай

**Qo‘ng‘irbosh uzunqanot to‘tiqush** yoki mallabosh to‘tiqush – to‘tiqushsimonlar oilasiga kiruvchi qush.

Uning tana uzunligi 15–23 sm. Patlarining rangi asosan kulrang aralash yashil bo‘ladi.

**Буроголовый длиннокрылый попугай** или коричневоголовый попугай – птица семейства попугаевых.

Длина тела 15–23 см. Основная окраска серо-зелёная.





**Sariqyanoq uzunqanot to'tiqush**

**Желтолицый длиннокрылый попугай**



**Sariqyanoq uzunqanot to'tiqush** yoki sariqyanoq to'tiqush – to'tiqushsimonlar oilasiga mansub qushdir.

Uning tanasi uzunligi 27-28 sm atrofida bo'ladi.

**Желтолицый длиннокрылый попугай** или желтощёкий попугай – птица семейства попугаевых.

Длина тела 27–28 см.



## Uzunqanot Meyer to'tiqushi
## Мейеров длиннокрылый попугай

**Uzunqanot Meyer to'tiqushi** – to'tiqushsimonlar oilasiga kiruvchi qush.

Ushbu to'tiqushning tana uzunligi 21–25 sm, dumining uzunligi 5-6 sm bo'ladi.



**Мейеров длиннокрылый попугай** – птица семейства попугаевых.

Длина тела 21–25 см, хвоста 5–6 см.





**Niqobdor chakamug' to'tiqush**
**Масковый неразлучник**



**Niqobdor chakamug' to'tiqush** – to'tiqushsimonlar oilasiga mansub qush.

Uning tana uzunligi 15 sm, dumi esa 4 sm atrofida bo'ladi.

**Масковый неразлучник** – птица семейства попугаевых.

Длина тела 15 см, хвоста 4 см.

MUNDARIJA

СОДЕРЖАНИЕ



MUNDARIJA

СОДЕРЖАНИЕ






5200 сум

**AFRIKA HAYVONOT OLAMI**

*Sudralib yuruvchilar, qushlar, hasharotlar*

Original maket va dizayn
*Shuhrat Mirfayozovniki*

Muharrir *Muhiddin Omon*
Texnik muharrir *Tatyana Smirnova*
Musahhih *Fotima Ortiqova*

Nashr. lits.№ 154. 14.08.09. Bosishga 05.03.2012-y. da ruxsat berildi.
Bichimi 60x84$^1/_8$. Ofset bosma. 11,16 shartli bosma toboq. 10,3 nashr tobog'i.
Adadi 5000 nusxa. 42-2012 raqamli shartnoma. 121 raqamli buyurtma.
Bahosi shartnoma asosida.

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligining
G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyida chop etildi.
100128. Toshkent. Shayxontohur ko'chasi, 86.

**Bizning internet manzilimiz: www.iptdgulom.uz**
**E-mail: iptdgulom@sarkor.uz**